

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10900166>

## DAVLAT BOSHQARUVIDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA SUD NAZORATINING TUTGAN O'RNI

**Yangiboyev Farhod Rashidovich**

O'zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo akademik litseyi

huquq fani o'qituvchisi

[Farhod.yangiboyev@list.ru](mailto:Farhod.yangiboyev@list.ru)

“Sud ostonasiga qadam qo‘ygan har bir inson, O‘zbekistonda adolat hukm surayotganiga to‘la ishonch hosil qilishi kerak. Aks holda, buyuk nemis faylasufi Immanuel Kant aytganidek, “Adolat yo‘qolgan paytda, hayotning qadrini belgilaydigan boshqa hech narsa qolmaydi”.  
*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev*

### ANNOTATSIYA

*Mazkur magistrlik dissertatsiyasi davlat boshqaruvida qonuniylik tushunchasi, qonuniylikni ta'minlash usullari, nazorat va kontrol tushunchalari, xususiyatlari, davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda sud nazorati tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari, davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda Konstitutsiyaviy va ma'muriy sud nazoratining tutgan o'rni, bu borada xorijiy davlatlar qiyosiy tahlili, davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda sud nazoratining huquqiy asoslari yoritib berilgan. Konstitutsiyaviy va ma'muriy sud ish yurituvini rivojlantirish bo'yicha tavsiya va takliflar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Qonuniylik, ko'ppartiyaviylik, huquq, Xalq qabulxonalari, jaholat, ma'rifat, vatanparvarlik, taraqqiyot strategiyasi, milliy g'urur, qadriyatlar, davlat ramzlari.*

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasini “2017–2021 yillarda rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi”ning ikkinchi yo'nalishi bo'lmish “Qonuniylikni ta'minlash va sud huquq tizimini takomillashtirish” sohasida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish,

davlat boshqaruvida qonuniylikni taminlashda sud nazoratini kuchaytirish, fuqaro va tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish choralarini kuchaytirish, odil sudlovni samarali ta'minlash hamda sudyalar hamjamiyati rolini oshirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga murojaatnomasida "Sud ostonasiga qadam qo'ygan har bir inson, O'zbekistonda adolat hukm surayotganiga to'la ishonch hosil qilishi kerak. Aks holda, buyuk nemis faylasufi Immanuel Kant aytganidek, "Adolat yo'qolgan paytda, hayotning qadrini belgilaydigan boshqa hech narsa qolmaydi". Bu haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak. O'zbekistonda sudyalar qonunlarning tolmas himoyachilari, adolatning mustahkam ustunlari bo'lishi lozim"<sup>1</sup> – degan fikrni ilgari surdi.

Davlat boshqaruv sohasida qonuniylikni ta'minlashda sud organlari nazoratini ta'minlash borasida chuqur islohatlar o'tkazish, sudyalar mustaqilligini ta'minlash bugungi kunda muhim bo'lgan masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois mamlakatimizda davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda sud nazoratini tizimli o'rganish barobarida, yuridik fan va amaliyot nuqtai nazaridan asoslantirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Davlat ushbu funksiyani amalga oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi:

*birinchidan*, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish;

*ikkinchidan*, qonunlar ijrosini ta'minlash va ular ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;

*uchinchidan*, fuqarolarni konstitutsiyaviy huquqlar va erkinliklar bilan ta'minlaydigan qonunchilikni yaratish;

*to'rtinchidan*, huquqni muhofaza qilish organlari tizimini shakllantirish;

*beshinchidan*, qonunchilik va huquqiy tartibotni mustahkamlash.

Qonun va qonunosti hujjatlariga to'la rioya etishni ta'minlovchi vosita va sharoitlar qonuniylikning kafolatlari hisoblanadi. Bunday kafolatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy, mafkuraviy, maxsus yuridik jihatlari bor. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, turli shakldagi mulkchilik. jamiyatdagi iqtisodiy erkinliklar qonuniylikning ijtimoiy-iqtisodiy kafolati bo'ladi.

Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda davlat boshqaruvi organlari tomonidan qo'llaniladigan bir necha usullar mavjud.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil 24 yanvar. //url: <https://prezident.uz/>

Shu jumladan, bu borada mamlakatimizda qonuniylikni ta'minlashda davlat boshqaruv organlari huquqiy asoslarini yaratish va yaratilganlarini qayta ko'rib chiqish masalasi qo'yilmoqda. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda Prezidentlik instituti ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlariga va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va qonunlariga rioya etilishining kafilidir deb belgilab qo'yilgan. Bu borada Prezident virtual qabulxonasi tashkil etildi. Bugungi kunga kelib Prezident virtual qabulxonasiga 4 million 988 960 ta murojat kelib tushgan va shulardan 4 million 882 125 tasi ko'rib chiqilgan<sup>1</sup>.

Davlat boshqaruvi jarayonida qonuniylikni ta'minlashda sud organlari ham alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun ham so'ngi yillarda sud tizimida ham keng islohatlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6034 sonli farmoni sud tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Bunda sud tizimi qayta takomillashtirilib, vazifalar aniq taqsimlanib, sud mustaqilligi ta'minlandi. Bu islohotlar inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim qadam bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud normativ huquqiy hujjatlarni Konstitutsiyaga nomuvofiqligi bo'yicha huquqiy javobgarlik mexanizmini takomillashtirish;

Konstitutsiyaga nomuvoffiq bo'lgan normativ huquqiy hujjat yoki uning bir qismini bekor qilish, o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritish mexanizmini yanada rivojlantirish;

Ma'muriy sudlar tomonidan ishlarni ko'rishda buzulgan huquqlarni tiklash usullarini yanada kengaytirish;

Idoraviy normativ huquqiy hujjatlarni ma'muriy sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan g'ayriqonuniy hujjatni bekor qilish yoki o'zgartirish mexanizmini rivojlantirish.

---

<sup>1</sup> [https://pm.gov.uz/oz#/\(murojat etilgan sana: 15.04.2021\).](https://pm.gov.uz/oz#/(murojat%20etilgan%20sana%3A%2015.04.2021))

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil 24 yanvar. //url: <https://prezident.uz/>
2. [https://pm.gov.uz/oz#/\(murojat etilgan sana: 15.04.2021\)](https://pm.gov.uz/oz#/(murojat%20etilgan%20sana%3A%2015.04.2021)).
3. Маъмурий ишлар бўйича суд ҳужжатлари намуналари [Матн]. – Тошкент: Baktria press, 2018. – 408 б.
4. Муратаев С.А, Мусаев Б.Т, Артиков Д.Р. Маъмурий ҳуқуқ ва процесс. – Тошкент: Тошкент давлат юридик университети, 2019. – 418 б
5. <http://www.lex.uz>
6. <http://www.minjust.uz>
7. <http://www.norma.uz>